SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 8-yanvar | 7-8-119-Q/25 | Sherobod tuman hokimligi

Sherobod tuman hokimining 2024-yil 29-oktyabrdagi 351-8-119-Q/24-sonli qarorini bekor qilish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida”gi Nizomi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-apreldagi 218-sonli “Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiq, Sherobod tuman Adliya bo‘limining 2024-yil 2-noyabrdagi “Qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi 37/5-214-sonli taqdimnomasini o‘rganib chiqib, aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Sherobod tuman Adliya bo‘limining 2024-yil 2-noyabrdagi “Qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi 37/5-214-sonli taqdimnomasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sherobod tuman hokimining 2024-yil 29-oktyabrdagi 351-8-119-Q/24-sonli qarori amaldagi qonun hujjatlariga zid ravishda qabul qilinganligi sababli bekor qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimligi yuriskonsulti B.Salohiddinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimining
birinchi o‘rinbosari



XAMRAYEV
ULUG‘BEK.RO‘ZIBOY
O‘G‘LI